

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Холбеков Абугани ЛИТЕРАТУРНЫЙ МЕТОД КАК СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ В АНАЛИЗЕ ТОТАЛИТАРИЗМА (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «1984»).....	8
2. Султанова Эътибор МЕХАНИЗМЫ ПОЛИТИКИ ТОЛЕРАНТНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	15
3. Латипова Нодира МЕСТО И РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ В СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЕ.....	21
4. G'afforova Mavlyuda JAMIYAT HAYOTIDA XOTIN-QIZLARNING SOTSIOMADANIY QIYOFASI.....	29
5. Tagiyeva Gulsum, Tursunboyev Jahongir O'ZBEKISTONDA ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	38
6. Xolbekov Abdugani, Axmedov Tuychi IJTIMOIY XAVFLAR SHAROITIDA MAHALLANING ROLI VA ANAMIYATI.....	51
7. Якубов Ильдар КОНЦЕПЦИИ УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ РОЛИ ГОСУДАРСТВА: ПОЛИТИКО-СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД.....	57
8. Хасанова Мавлюда, Низамов Шохрухжон РОЛЬ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФИЛИАЛАХ РОССИЙСКИХ ВУЗОВ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	63
9. Mannanova Nilufar BUYUK BRITANIYA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA KOMPETENSIYA MODELLARINING RIVOJLANISH AMALIYOTI.....	71
10. Berdimuratova Alima, Baymurzaev Azamat, Berdimuratov Nauriz JAMIYATDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI.....	78
11. Radjabova Aziza XALQARO MUNOSABATLAR VA JAHON SIYOSATIDA GENDER FENOMENI: FEMINISTIK NAZARIYANING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI.....	87
12. Ixtiyarov Farxod RAQAMLI TENGSIZLIKNI INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI.....	93
13. Ergasheva Mehribon “GENDER MADANIYATI” TUSHUNCHASI: MOHIYATI VA ASOSIY JIHLATLARI.....	100
14. Mengliyev Atabek REPRODUKTIV SALOMATLIKNI BELGILOVCHI IJTIMOYIY DETEMINANTLAR: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	107


15. Джураева Анна, Сеитов Азамат СОЦИАЛЬНАЯ ЦЕНА УСТОЙЧИВОСТИ: УРОКИ КРИЗИСА 2008 ГОДА И РИСКИ “ГОЛЛАНДСКОЙ БОЛЕЗНИ” ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА.....	118
16. Mo‘minov Zokirjon TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINI YUQUMLI FUNKSIYALARI: IJTIMOIIY- STRAUKTURAVIY TAHLIL.....	125
17. Husenov Sirojiddin “HAR BIR OILA TADBIRKOR” HARAКATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	132
18. Kalanova Sabohat, Saidov Ulug‘bek RAQAMLI JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARINING DIFFERENSIATSIYASI.....	140
19. Toshbo‘riyeva Sevara TA‘LIM VA OILAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING YOSH AYOLLAR IJTIMOIIY MOBILLIGIGA TA‘SIRI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	150
20. Mannanov Erkin ETNOTURIZMNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARIGA BIR NAZAR.....	157
21. Артыкова Алёна ОРИЕНТАЦИЯ НА ЧЕЛОВЕКА: НОВЫЙ ВЕКТОР РАЗВИТИЯ МАХАЛЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	164
22. Zaitova Sitara O‘ZBEKISTONDA KAM TA‘MINLANGAN OILALARNI MANZILLI QO‘LLAB- QUVVATLASH MEХANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	177
23. Raximjonova Gulzira DAVLAT BOSHQARUVI SHAFFOFLIGINI TA‘MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O‘RNI: STATISTIK VA METODOLOGIK TAHLIL.....	186
24. Ro‘yiddinova Aisha O‘ZBEKISTONDA ISHONCHLI AXBOROT MUHITINING HOLATI VA UNING XALQARO KO‘RSATKICHLARDAGI O‘RNI.....	196
25. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MEХANIZMLARI.....	203

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Radjabova Aziza,
JIDU Xalqaro aloqalar
Kafedrası dotsenti, PhD
email: radjabova@uwed.uz

XALQARO MUNOSABATLAR VA JAHON SIYOSATIDA GENDER FENOMENI: FEMINISTIK NAZARIYANING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21111685>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada gender fenomenining xalqaro munosabatlar va jahon siyosatidagi oʻrni hamda evolyutsiyasi feministik nazariya doirasida ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda gender masalalarining anʼanaviy ijtimoiy muammo doirasidan chiqib, zamonaviy xalqaro siyosiy diskursning muhim tarkibiy elementiga aylanish jarayoni yoritilgan. Maqolada biologik jins va gender tushunchalari oʻrtasidagi konseptual tafovut ilmiy jihatdan asoslanib, gender biologik determinizm mahsuli emas, balki ijtimoiy, madaniy, tarixiy va siyosiy jarayonlar taʼsirida shakllanuvchi konstruktiv kategoriya sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan, Margaret Mead, Simone de Beauvoir va Ann Oakley kabi olimlarning nazariy qarashlari gender rollarining ijtimoiy konstruksiyasi hamda gender tengsizligining institutsional va madaniy omillar orqali qayta ishlab chiqarilishi jarayonlarini tushuntirishda muhim metodologik asos sifatida tahlil qilinadi. Muallif izlanishlari natijalari gender tengligi masalasi nafaqat inson huquqlari bilan bogʻliq ijtimoiy kategoriya, balki demokratik boshqaruv, ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyotning muhim siyosiy omillaridan biri ekanligini koʻrsatadi. Shu bois gender yondashuvlarini xalqaro siyosat va davlat boshqaruvi tizimiga integratsiya qilish zamonaviy global tizimda inklyuziv rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik va siyosiy legitimlikni taʼminlashning muhim shartlaridan biri sifatida baholanadi.

Kalit soʻzlar: gender, gender tengligi, feministik nazariya, xalqaro munosabatlar, jahon siyosati, gender konstruksiyasi, ayollar huquqlari, feministik yondashuv, demokratik boshqaruv, barqaror taraqqiyot.

Раджабова Азиза,
доцент кафедры международных отношений
УМЭД, PhD
email: radjabova@uwed.uz

ГЕНДЕРНЫЙ ФЕНОМЕН В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ И МИРОВОЙ ПОЛИТИКЕ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ ФЕМИНИСТСКОЙ ТЕОРИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье в рамках феминистской теории проводится научный анализ роли и эволюции гендерного феномена в международных отношениях и мировой политике. Исследование освещает процесс перехода гендерных вопросов от традиционной социальной проблемы к важному структурному элементу современного международного политического

дискурса. В статье на научной основе интерпретируется концептуальное различие между понятиями биологического пола и гендера, при этом гендер рассматривается не как продукт биологического детерминизма, а как конструктивная категория, сформированная под влиянием социальных, культурных, исторических и политических процессов. В этом контексте анализируются теоретические взгляды таких ученых, как Маргарет Мид, Симона де Бовуар и Энн Окли, как важная методологическая основа для объяснения социального конструирования гендерных ролей и процессов воспроизводства гендерного неравенства посредством институциональных и культурных факторов. Результаты исследования автора показывают, что вопрос гендерного равенства является не только социальной категорией, связанной с правами человека, но и одним из важных политических факторов демократического управления, социальной справедливости и устойчивого развития. Поэтому интеграция гендерных подходов в систему международной политики и государственного управления рассматривается как одно из важных условий обеспечения инклюзивного развития, социальной стабильности и политической легитимности в современной глобальной системе.

Ключевые слова: гендер, гендерное равенство, феминистская теория, международные отношения, мировая политика, гендерное конструирование, права женщин, феминистский подход, демократическое управление, устойчивое развитие.

Radjabova Aziza,
UWED International Relations department
Associate Professor, PhD
email: radjabova@uwed.uz

GENDER PHENOMENON IN INTERNATIONAL RELATIONS AND WORLD POLITICS: CONCEPTUAL APPROACHES OF FEMINIST THEORY

ABSTRACT

This article scientifically analyzes the role and evolution of the gender phenomenon in international relations and world politics within the framework of feminist theory. The study highlights the process of gender issues moving from a traditional social problem to an important structural element of modern international political discourse. The article interprets the conceptual difference between the concepts of biological sex and gender on a scientific basis, and gender is not a product of biological determinism, but as a constructive category formed under the influence of social, cultural, historical and political processes. In this context, the theoretical views of scholars such as Margaret Mead, Simone de Beauvoir and Anne Oakley are analyzed as an important methodological basis for explaining the social construction of gender roles and the processes of reproduction of gender inequality through institutional and cultural factors. The results of the author's research show that the issue of gender equality is not only a social category related to human rights, but also one of the important political factors of democratic governance, social justice and sustainable development. Therefore, the integration of gender approaches into the system of international politics and public administration is considered one of the important conditions for ensuring inclusive development, social stability and political legitimacy in the modern global system.

Keywords: gender, gender equality, feminist theory, international relations, world politics, gender construction, women's rights, feminist approach, democratic governance, sustainable development.

KIRISH

Jahon siyosatida gender fenomenining ommalashishi feministik ijtimoiy harakat faollarining va tadqiqotchilarining mavjud siyosatda gender tengsizlik muammosiga asosiy urgʻuning qaratganliklari sabab boʻldi. Bundan tashqari, Xalqaro munosabatlar tizimi faqat davlatlar oʻzaro taʼsir doirasiga taalluqli soha sifatida qaralib, davlatlar ichki siyosatiga daxldor holatlar, yaʼni

mamlakatning o'z fuqarolariga, ayniqsa ayollarga nisbatan munosabati, xalqaro maydondagi munozaralarda ayollar tajribasi va istiqbollari haqida kam yoki umuman hisobga olinmagan. Keyinchalik, feministik tadqiqotlarning markazida aynan shu kabi masalalar bahs-munozaralarga sabab bo'ladi.

XXI asrda xalqaro munosabatlar va jahon siyosati tizimida gender masalasi muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv jarayonlari, demokratik qadriyatlarning kengayishi, inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan xalqaro mexanizmlarning takomillashuvi natijasida ayollar va erkaklarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki masalalari xalqaro siyosatning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, gender tengligi, ayollarning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni kabi masalalar xalqaro tashkilotlar, davlatlar va ilmiy hamjamiyat diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

An'anaviy xalqaro munosabatlar nazariyalari – realizm, liberalizm va neorealizm asosan davlatlar, kuchlar muvozanati, milliy manfaatlar va xavfsizlik muammolariga e'tibor qaratgan bo'lsa, feministik yondashuv mazkur jarayonlarda gender omilining ahamiyatini ochib berishga harakat qildi. Feministik nazariya xalqaro munosabatlarda mavjud bo'lgan erkaklar ustuvorligiga asoslangan yondashuvlarni tanqid qilib, xalqaro siyosiy jarayonlarning gender jihatlarini tahlil qilishga qaratilgan yangi ilmiy paradigmani shakllantirdi. Bu nazariya xalqaro munosabatlarda hokimiyat, xavfsizlik, mojarolar, tinchlik o'rnatish, migratsiya, global iqtisodiyot va inson huquqlari kabi masalalarni gender nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish imkonini berdi.

METODOLOGIYA

Xalqaro munosabatlarda gender masalalarining dolzarbligi AQSH va Yevropa mamlakatlarida dastlab tadqiq etila boshlangan yo'nalish sifatida ko'proq feministik qarash vakillari tomonidan ilgari surilganligi sababli mazkur qarashlar Fred Halliday [1], Elshtain Jean Bethke [2], Cohn, Carl [3], Connell, Robert W., va James W. Messerschmidt [4], Miriam Cooke, Angela Woollacott, Enloe Cynthialarning [5] ilmiy ishlari asosida, Margaret Mead [6], Simona de Beauvoir [7], Mary Wallstonecraft [8]larning g'oyalari aks etgan ishlar gender tengligi targ'ibotidagi ilk klassik namunalari sifatida o'rganildi.

Xotin-qizlarning tizimli tarzda kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, ularning huquq va manfaatlarini ustuvorligini ta'minlashda davlatning mas'uliyatlik xarakteri va vakolati xususida Harrington [9], Petreson [10] va J. Ann Tikner [11] chuqur mulohaza yuritgan bo'lsa, davlatlarning ichki siyosat bilan birga tashqi siyosatida ham gender tengligi rioya etishlari lozimligi, McGlen, Nancy va Meredith Reid Sarkees [12], Ruddick Sarah [13], Brown Sarah [14], Elshtain Jean Bethke [15], and Shelia Tobias, Cohn, Carol [16]. Gray M. Mark, Miki Caul Kittleson, Wayne Sandholtz [17] tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Gender tengsizligiga olib keluvchi jinsiy mansublik, bunda gender va jins tushunchalarining tub mohiyati Guerrero Witt, M., Wood [18], Baden, Sally va Anne Marie Goetz [19] ilmiy ishlarida yaqqol bayon etilgan.

ASOSIY QISM

Feministik nazariyaning xalqaro munosabatlar sohasiga kirib kelishi 1980-yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda olimlar xalqaro siyosatni tahlil qilishda ayollar tajribasi va ishtiroki yetarlicha hisobga olinmayotganligini ta'kidlab, mavjud nazariy modellarni qayta ko'rib chiqish zarurligini asosladilar. Natijada liberal feminizm, radikal feminizm, sotsialistik feminizm, poststrukturalistik feminizm va postkolonial feminizm kabi turli konseptual yondashuvlar shakllandi. Ushbu yondashuvlar xalqaro munosabatlarda gender munosabatlarining turli qirralarini ochib berish bilan birga, jahon siyosatida ayollar rolini baholashning yangi uslublarini taklif etdi.

Bugungi kunda gender tengligi masalasi xalqaro tashkilotlar faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, United Nations tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarining beshinchi maqsadi gender tengligini ta'minlash va barcha ayollar hamda qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga bag'ishlangan. Shuningdek, UN Women, European Union hamda boshqa xalqaro institutlar gender tengligi sohasida keng ko'lamli dasturlarni amalga oshirmoqda. Bu holat gender fenomenini xalqaro munosabatlar va jahon siyosati doirasida chuqur o'rganish zarurligini yanada kuchaytirmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi xalqaro munosabatlar va jahon siyosatida gender fenomenining nazariy asoslarini tahlil qilish, feministik nazariyaning asosiy konseptual yondashuvlarini o'rganish hamda ularning zamonaviy xalqaro siyosiy jarayonlarni anglashdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat. Shu maqsadda feministik nazariyaning shakllanish tarixi, uning asosiy yo'nalishlari va xalqaro munosabatlar nazariyasi rivojiga qo'shgan hissasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalari xalqaro munosabatlar nazariyasini gender nuqtai nazaridan boyitish, jahon siyosatida ayollar ishtiroki va gender tengligi masalalarini baholashning zamonaviy ilmiy yondashuvlarini aniqlash hamda mazkur sohada keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, gender fenomeni va feministik nazariyaning konseptual yondashuvlarini tahlil qilish xalqaro munosabatlar fanining dolzarb va istiqbolli tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Gender nazariyasining konseptual asoslarini tushunish, avvalo, "jins" va "gender" tushunchalari o'rtasidagi farqni aniqlashtirishni talab etadi. Chunki feministik nazariyada gender masalasi biologik tafovutlarni oddiy tasvirlash emas, balki ushbu tafovutlarga jamiyat tomonidan qanday ma'no yuklanishi, ular qanday ijtimoiy rollar va hokimiyat munosabatlariga aylantirilishi bilan bog'liq murakkab nazariy muammo sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan, gender biologik jinsning bevosita va tabiiy natijasi emas, balki ijtimoiy, madaniy, tarixiy va siyosiy jarayonlar orqali shakllanadigan konstruktiv kategoriya hisoblanadi. Gender – "erkak"lik va "ayol"lik ijtimoiy tasniflariga ishora qiladi [20].

Genderning klassik namoyondalari talqini ham genderning madaniy xususiyatlarga uzviy bog'liq ekanligini rad etmaydi. Margaret Mead, Simone de Beauvoir, Mirra Komarovsky, Viola Klein, Ruth Hersberger [21] bu haqda o'zlarining uzoq yillik tadqiqotlari asosida genderning namoyon bo'lish jihatlari o'rganishgan.

Antropolog Margaret Mid jinslardagi o'ziga xos farqlilik faqat biologik xilma-xillik mahsuli emasligi aniq edi. "Men insondagi ma'lum xususiyatlarning mavjudligini ijtimoiy ixtisoslashuv mahsuli ekanligini aniqladim. Unga ko'ra inson taraqqiyoti ma'lum bir xatti-harakatlar bir jins uchun tabiiy, boshqasi uchun g'ayriodatiy sanalishiga olib keldi. Temirning kashf etilishi, turli inqirozlar shular jumlasidandir". Mazkur jihatlar erkaklik va ayollikning taqiqlangan gender rollari bilan bog'liq va ularni ajratib turadigan ijtimoiy jihatdan o'rganilgan xatti-harakatlar, takroriy namoyishlar va ideallashtirilgan obrazlarga ishora qiladi.

Ann Oakley ushbu farqlashni gender tadqiqotlari uchun muhim nazariy burilish sifatida asoslab bergan olimlardan biridir. Uning yondashuviga ko'ra, biologik jins tabiiy-fiziologik tafovutlarga ishora qilsa, gender jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan "erkaklik" va "ayollik" modellari bilan bog'liqdir [22]. Bu farqlash feministik nazariya uchun prinsipial ahamiyatga ega. Chunki, u ayollar va erkaklar o'rtasidagi ko'plab ijtimoiy farqlar "tabiiy" emas, balki tarixiy va madaniy sharoitlarda shakllanganligini ko'rsatadi. Masalan, ayollarning g'amxo'rlik, itoatkorlik yoki hissiylik bilan, erkaklarning esa yetakchilik, ratsionallik va kuch bilan bog'lanishi biologik zaruratdan ko'ra ko'proq ijtimoiy tarbiya va madaniy me'yorlar mahsulidir.

Demak, gender nazariyasi jamiyatda tabiiydek ko'rinadigan ijtimoiy rollar aslida qanday qilib ishlab chiqarilishi va legitimlashtirilishini tahlil qiladi.

Simone de Beauvoirning "ayol bo'lib tug'ilmaydi, ayolga aylanadi" degan mashhur g'oyasi aynan genderning ijtimoiy konstruktsiya sifatidagi mohiyatini ochib beradi [23].

Bu fikrga ko'ra, "ayollik" biologik tanadan avtomatik ravishda kelib chiqadigan tabiiy mohiyat emas; aksincha, u tarbiya, til, din, ta'lim, oilaviy institutlar, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy amaliyotlar orqali shakllantiriladi. Beauvoir ayolning jamiyatda "Ikkinchi" sifatida qurilishini tahlil qilgan ekan, gender tengsizligi faqat huquqiy cheklavlar bilan emas, balki ayol subyektligining madaniy va falsafiy jihatdan pastroq maqomga joylashtirilishi bilan ham bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Shu bilan birga gender - bu erkaklar va ayollarning ijtimoiy modeli, bu orqali erkaklar va ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi ko'rib chiqiladi [24]. Shu jihatdan genderning aslida tan olish va tan olinish kabi muhim jihatlari namoyon bo'ladi. Mazkur jihatlar gender fenomenining jamiyat hayotida kishilar tasavvuridanda ko'proq va chuqurroq ta'sir doira kasb etishini anglatadi.

Bundan ma'lum bo'ladiki, gender - bu erkaklar va ayollarning ijtimoiy modeli, bu orqali erkaklar va ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi ko'rib chiqiladi [25].

Shu jihatdan, genderning aslida tan olish va tan olinish kabi muhim jihatlari namoyon bo'ladi. Mazkur jihat gender tenglik tamoyili, uning jamiyat hayotida namoyon bo'lish xususiyatlari barqarorlik va tinchlik omili sifatida kuzatilishini asoslaydi. Shu jihatdan, gender tengligi – bu jamiyatda shaxslararo munosabatda tenglik, adolat, erkinlik tamoyillarining amal qilishi, har bir jins vakillarining, o'z huquq va majburiyatlarini to'laqonli amalga oshirishi uchun jamiyatda shaxsning istak va qiziqishlari, hech qanday kamsitilishlarsiz namoyon bo'lishi ta'minlangan jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Gender fenomenining xalqaro munosabatlar va jahon siyosatidagi o'rni turli konseptual nazariyalar doirasida tadqiq etilgan bo'lsa-da, feministik nazariya genderga oid jihatlarning zamonaviy xalqaro siyosatda muhim ilmiy va siyosiy yo'nalishlardan biriga aylanganini ko'rsata olgan muhim yo'nalish sanaladi. Feministik yondashuvlar xalqaro munosabatlarda nafaqat davlatlararo aloqalarni, balki davlatlarning o'z fuqarolari, ayniqsa xotin-qizlarga nisbatan munosabatini ham muhim siyosiy mezon sifatida baholash zarurligini asoslaydi. Mazkur jihatlarni bugungi kun Feministik tashqi siyosat olib borayotgan qator Skandinav davlatlari misolida kuzatish mumkin.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar va jahon siyosati gender tengligini ta'minlash demokratik boshqaruv, inson huquqlari va barqaror taraqqiyotning muhim omillaridan biri ekanligining guvohi bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, gender masalalarini xalqaro siyosat va davlat boshqaruvi tizimida samarali integratsiya qilish ijtimoiy barqarorlik hamda adolatli taraqqiyotni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

XULOSA

Xalqaro munosabatlar va jahon siyosatida gender fenomeni zamonaviy siyosiy jarayonlarni anglashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, feministik nazariya xalqaro munosabatlarni tahlil qilishda an'anaviy realistik va liberal yondashuvlarni to'ldirib, xalqaro siyosatning gender jihatlarni ochib berishga xizmat qiluvchi muhim konseptual paradigma hisoblanadi.

Tahlillar natijasida aniqlandiki, xalqaro munosabatlar nazariyasida uzoq vaqt davomida davlat, hokimiyat, xavfsizlik va milliy manfaatlar kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etgan bo'lsa-da, gender munosabatlari va ayollarning xalqaro siyosiy jarayonlardagi ishtiroki yetarlicha o'rganilmagan. Feministik nazariya mazkur bo'shliqni to'ldirib, xalqaro siyosatdagi tengsizlik, diskriminatsiya va hokimiyat munosabatlarni gender nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida liberal, radikal, sotsialistik, poststrukturalistik va postkolonial feminizm yo'nalishlarining konseptual xususiyatlari tahlil qilinib, ularning har biri xalqaro munosabatlarning muayyan jihatlarni izohlashda muhim nazariy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Xususan, liberal feminizm ayollarning siyosiy va huquqiy imkoniyatlarini kengaytirishga e'tibor qaratsa, radikal feminizm gender tengsizligining institutsional va madaniy asoslarini tanqidiy tahlil qiladi. Postkolonial feminizm esa rivojlanayotgan mamlakatlardagi ayollar muammolarini global siyosiy jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganish imkonini yaratadi.

Shuningdek, feministik yondashuvlar xalqaro xavfsizlik, tinchlik o'rnatish, mojarolarni hal etish, inson huquqlarini ta'minlash va barqaror rivojlanish sohalarida gender omilini hisobga olish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Bugungi kunda ayollarning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki, gender tengligi va inklyuziv boshqaruv masalalari global siyosatning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, feministik nazariya xalqaro munosabatlar va jahon siyosatida gender fenomenini chuqurroq anglash, global siyosiy jarayonlarning insonparvarlik va tenglik tamoyillari asosida rivojlanishini baholash hamda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan samarali siyosiy mexanizmlarni ishlab chiqish uchun mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida xalqaro munosabatlar sohasidagi tadqiqotlarda gender masalalarini kompleks va interdisciplinar yondashuvlar asosida o'rganish mazkur sohaning nazariy va amaliy rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi.

Adabiyotlar/Literatura/ References:

1. Halliday Fred. Rethinking international relations. Bloomsbury Publishing, 1994.
2. Elshtain Jean Bethke. Women and war. University of Chicago Press, 1995.
3. Cohn Carol. Wars, wimps, and women: Talking gender and thinking war. na, 1993. «Hegemonic masculinity: Rethinking the concept». Gender & society 19.6 (2005): pp.829-859.
4. Enloe Cynthia. Bananas, beaches and bases: Making feminist sense of international politics. University of California Press, 2014.
5. Mead Margaret. Sex and temperament in three primitive societies. Vol. 370. New York: Morrow, 1963.
6. De Beauvoir Simone. «The second sex». Classic and Contemporary Readings in Sociology. Routledge, 2014. Pp.118-123.
7. Wollstonecraft Mary. «A Vindication of the Rights of Woman». A Vindication of the Rights of Woman. Yale University Press, 2014.
8. Harrington Mona. «What exactly is wrong with the liberal state as an agent of change?». Gendered states (1992): pp.67-68.
9. Peterson V. Spike, ed. Gendered states: Feminist (re) visions of international relations theory. Boulder, CO: Lynne Rienner, 1992.
10. Tickner J. Ann. Gender in international relations: Feminist perspectives on achieving global security. Columbia University Press, 1992.
11. McGlen Nancy, and Meredith Reid Sarkees. «Women in foreign policy». New York (1993).
12. Ruddick Sara. «The rationality of care». Women, Militarism, and War (1990): pp.229-254.
13. Brown Sarah. «Feminism, international theory, and international relations of gender inequality». Millennium 17.3 (1988): pp.461-475.
14. Elshtain Jean Bethke, and Sheila Tobias, eds. Women, militarism, and war: Essays in history, politics, and social theory. Rowman & Littlefield, 1990.
15. Cohn Carol. «Clean bombs and clean language». Elshtain and Tobias (1990): pp.33-55.
16. Gray Mark M., Miki Caul Kittilson and Wayne Sandholtz. »Women and globalization: A study of 180 countries, 1975-2000«. International Organization 60.2 (2006): pp.293-333.
17. Witt Melissa Guerrero and Wendy Wood. «Self-regulation of gendered behavior in everyday life». Sex Roles 62.9 (2010): pp. 635-646.
18. Baden, Sally, and Anne Marie Goetz. «Who needs [sex] when you can have [gender]? Conflicting discourses on gender at Beijing». Feminist review 56.1 (1997): pp.3-25.
19. Delphy Christine. «Rethinking sex and gender». Women's Studies International Forum. Vol. 16. No. 1. Pergamon, 1993.
20. https://www.academia.edu/291689/When_Sex_Became_Gender_Routledge_
21. Oakley A, “Sex, Gender and Society” // Temple Smith – 1972. URL: <https://www.annoakley.co.uk/fromsgas.pdf>
22. Beauvoir S. de, “The Second Sex” // Gallimard – 1949. URL: https://books.google.com/books/about/The_Second_Sex.html?id=qza9AwAAQBAJ
23. Бурдые П. Мужское господство. Пер. с фр. Марковой Ю.В. / Социальное пространство: поля и практики. М.: Институт экспериментальной социологии, СПб. Алетейя, 2005. – С. 286-364.
24. Бурдые П. Мужское господство. Пер. с фр. Марковой Ю.В. / Социальное пространство: поля и практики. – М.: Институт экспериментальной социологии. – СПб. Алетейя, 2005. – С. 286-364.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000